

MEHROBDAN CHAYON: INSONIYLIK

Mirakmalova Dilnoza Husan qizi

Toshkent Davlat Texnika universiteti

Biotexnologiya kafedrası, 3-kurs 122-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridagi asosiy qahramonlarning insoniylik hasad va havas, o‘zaro munosabatlaridagi samimiylık, ochiqko‘ngıllık, boshqa birovni ko‘ra olmaslık, nafrat, o‘ch olish tuyg‘uları haqida yoritilgan. Har bir yurt farzandi vatanida muhabbat bilan hayot kechirib, undagi adolatni, shaffoflikni, poraxo‘rliksiz yordamni ta‘minlab millatini zolim boshliqlardan himoya qilishiga undalgan.*

Kalit so‘zlar: *Mehrob, munshiy, chayon*

Abdulla Qodiriyning har bir asari sodda, aniq, chunarli tilda, ma‘nolarini uzoq cho‘zib o‘tirmasdan, o‘qigan odamga voqea va hodisalar yorqin tasvirlay olingan. Xossatan, eski adabiy tilda yozilgan bo‘lishiga qaramasdan bu orqali o‘zligimiz unutmaslık, lug‘aviy til boyligimizni oshirish, ongimizni kengaytirishga xizmat qiladigan maqsadlar bor. “Mehrobdan chayon” asari ham har jihatdan mukammal yozilgan, o‘qiguchiga o‘sha muhit to‘laqonli yetkazib berilgan, xuddikim o‘qiganda miyada kinoteatr boshlanib, o‘zingizni xon davrida, saroyda, haramda, Solih mahdumni uyida va asar qahramonlari bilan birga tasavvur qilasiz.

Mehrob - jome masjid, masjidlarda qibla tomonga qaratilgan, odatiy devordan biroz ichkariga kirgan, imom namoz o‘qiydigan, Allohga bandalikni, qullikni izxor qilib sajda qilinadigan joy. Chayon - o‘rgimchaksimonlar sinfiga mansub, kuchli zaharli jonzot. Shu o‘rinda zaharli jonzotlarning birini xarakteristikasi haqida misol keltiray:

Uyida ilon boqayotgan bir ayol, ilonining hech oziqlanmay qo‘yganini ko‘radi. Har narsani sinab ko‘rsa ham bo‘yi ikki metrğa yetgan ilon kunlab hech narsa yemaydi. Eng ohiri ayol uni veterinarga olib boradi. Vaziyatni tushuntirgandan so‘ng veterinar unga:

- Ilon yoningizda uhlaydimi? Va sizni o‘rab oladimi?-deydi.

- Ha!- deb javob beradi ayol.

Bu xolatning sababini tushungan veterinar:

- Qarang, iloningiz kasal emas. Sizni yeyishga tayyorlanmoqda. Shu sababli sizni o‘rab, qanchalik kattalashishi kerakligini o‘lchadi. Va hech narsa yemasligini sababi esa siz uchun oshqozonida joy ochish. Bizning atrofimizda ham mana shunday jonzot niqobi ostida yurgan insonlar bor. Har bir og‘ishimizni, xatolarimizni muvaffaqiyatsizligimizni kutib yurishadi. Zero, biz hammani barobar sanab, bag‘rikenglik qilsak ham bunday insoniy tushunchalar qalb makonida yo‘qday.

“Mehrobdan chayon” deb atalishi esa mehrobda o‘tiradigan inson maqsadi faqat xolis Allohning roziligi bo‘lgan, iymoni, ixlosi mustahkam, butun bir ummatni g‘amini,

dardlarini aritib, yaralarga malham bo‘luvchi, haq din tomon chorlovchi bo‘lishi zarur va bunda vijdon tuyg‘usi ham soflikka yuz tutganligidan iymoniga nisbatan xiyonat qilmaydigan olim bir inson bo‘lishi lozim. Lekin bizning asar qahramonimizdagi imom esa g‘azab, o‘ch olish, mansab, obro‘ tuyg‘ularini hammasidan ham yuqori qo‘yadi, Xudoyorxonni oliy, ulug‘ inson sifatida ko‘rib, o‘z burchiga noloyqlik qiladi. Buning oqibatida insonlarga faqat yaxshilik tilovchi, xalqining adolat ko‘rishi uchun xizmatini ayamagan, qalbi pok bo‘lgan insonning qalbini chayon kabi ilma-teshik qilib chaqadi.

Asarni o‘qib chiqib tushunamizki, asardagi har bir qahramonda insoniylik fazilati turli xil darajada, turli xil ko‘rinishda shakllanganligini guvohi bo‘lamiz. Bugungi kunimizda bu hislat insonlarda tobora kamayib bormoqda. Ko‘pni ko‘rgan bobo-buvalarimiz bu borada bizga doimo o‘rnak bo‘lishgan. Insoniylikni shakllantirish uchun har bir odam bironing hurmatini joyiga qo‘ygan, hasad bilan emas havas ko‘zlari ila qalblarini gullatishgan, yordamni ayamaslik bilan yashashni, tashvishlarni kamaytirishgan. Insonlarni munosabatlarini bir - biriga bog‘laydigan va o‘rtadagi aloqani ham uzatigan - Insoniylik.

Asosiy qahramonlarimizdan Anvar asli tug‘ilgan payt uning uchun beshikto‘ylar, turli xil marosimlar qilinmagan. Hattoki qo‘ni-qo‘shnilar ham xabardorlanilmagan. Sababi otasi Salim bo‘yoqchining topgan daromadi oila zo‘rg‘a yetar edi, shu sababli u “tilab olingan farzand” emas edi. Ismini esa yigirma kunlardan keyin opasi Nodira qo‘ygan, opasi Nodira ukasi uchun ona edi. Anvar uch yoshga to‘lganida, besh yildan beri kamqonlik bilan og‘rib kelayotgan otasining kasali yana yoqasidan ushlaydi. Darmonsizlanib yotib qoladi va ehtiyoj tufayli dastgohini sotib ro‘zg‘or qiladi. Qish kelganidan so‘ng qishning sovug‘i ularning umrini o‘z izg‘irini bilan birin-ketin olib ketdi. Bahor kelishi bilan esa Salim bo‘yoqchining o‘zi... Shu bilan Anvarning onasi Anorbibi eridan va ikki bolasidan ayrilib, to‘rt bolasi bilan beva qoladi. Nodirani-ku erga berib yengillashar ammo qolgan uch bolasini boqish zimmasi Anorbibiga qoladi. Anorbibi ham shu dardi bilan birovning uyida yumush qilayotganda to‘sattan og‘rib qolib yurak falaji bilan o‘ladi. Uch farzandni katta qilish Nodiraga qoladi, ammo u ham kelinlik uyidagi ahvolni bilgani uchun ikki ukasini farzand so‘raganlarga, Anvarni esa o‘zi bilan olib qoladi. Nodiraning Anvardan umidlari katta, uni o‘qitib o‘qituvchi qilmoqchi, otasining uyida chiroq yoquvchi qilmoqchi edi. Mahallaligidan bir mahalla keyingi joyda- Solih mahdumning madrasasiga o‘qishga beradi. Zehni o‘tkirligidan o‘n bir yoshida savodi chiqadi. Lekin hayotning qiyinchiliklaridan Nodiraning eri ham “Seni farzandlariningni boqaymi yoki ukangnimi?” deyishidan majburlikdan Solih maxdumning onasi Mohlar oyimning yoniga borib, qaramog‘iga olishini iltimos qiladi. Anvarning eng yaqin, ishongan do‘sti Nasim edi. Nasimning otasi Qo‘qonningg‘ina emas, butun xonliqning tanilg‘an kishilaridan va bu ikki bolaning sinfiy ayirmaligi yeri bilan ko‘kcha, lekin yosh do‘stlar buning farqig‘a yetmaslar Nasim: “Xonning mirzaboshisining o‘g‘liman”, - deb havolan-mag‘anidek, Anvar ham: «Salim bo‘yoqchining yatimi, Solih maxdumning asrandisiman», deb andisha qilmas edi. Bu ikki bola bir joyda suhbatka kirishsalar, chetdagi bir kishi Anvarni yirtiq bo‘z kiyimlar ichida va Nasimni shohi adraslar bilan g‘arq holda ko‘rib, albatta «bu gadoybachcha bilan

bekbachchaning o‘zaro nima munosabatlari bor?» deb taajjublanar, lekin do‘stlar hali buning ayirmasini idrok qilmaslar edi. Lekin bu manfaatsiz do‘stlik ham uzoqqa cho‘zilmadi. Nasim o‘n besh yoshida chechak kasali bilan og‘rib, o‘sha davrlarda davosiz bo‘lganligi uchun vafot etadi. Anvar esa eng yaqin insonidan ayrilgani uchun hammadan ham ko‘p ko‘zyosh to‘kadi va unga bag‘ishlab marsiya yozadi:

Ochilmay so‘lsa har gul g‘unchasi pir-u juvon yig‘lar,
 Emas pir-u juvon, balki hamma ahli jahon yig‘lar.
 Ajal yag‘mogari bog‘i zako ichra uzib zanjir,
 Rahmsiz ezsa ma‘sum lolalarni, chun xazon yig‘lar.
 Nasimim ketdi olamdin meni qayg‘u aro tashlab,
 Ko‘zimdin oqsa xun hech bir ajab yo‘q, chunki qon yig‘lar.
 Jahonda erdi tanho men yatimga hamnishin', dildor,
 G‘ariblikning diyorida adashkan notavon yig‘lar...

Buni ko‘rgan Nasimning otasi Muhammad Rajabbek Anvarni o‘zi o‘qitmoqchi bo‘lib uni xonlikdagi mirzolikka oladi.

“Mehrobdan chayon” asarida asosiy mazmun bo‘lib xonlikdagi zulmlar, beayb oqqan qonlar, insonlarning qondek oqqan ko‘zyoshlari- bularning bari millatning haq-huquqini poymol qilinishi, kambag‘al aholining osmonidan qora bulutlarni ketmasligi tasvirlangan. Bu orqali xalqning ongini uyg‘atishga undov bor. Hozirgi zamonamizda yurtimizdagi demokratiya orqali insonlarning murojaatlari eshitilmoqda, har bir insonning erkinliklariga ega, teng huquqli deb qaralishini ham taqqoslashimiz mumkin.

Muhammad Rajabbekni vafotidan so‘ng Solih maxdumni qistovi bilan boshmunshiylikka o‘tadi. Chunki Anvar bundayin katta mansablarga xirs qo‘ymagan, xonlikning ichki ahvoli - xalqning beayov xo‘rlanishi, odamlarning haq-huqularini poymol qilib, beayb oqadigan qonlarning guvohi bo‘lgan. Birgina Anvar va uning yaqin do‘stiday bo‘lib ketkan kishisi Sultonali xalqini zulmlardan himoya qilib turuvchi qalqon edi.

- Men bek pochcha bo‘lolmayman, Ra‘no. O‘rdadag‘i to‘kulib turg‘an gunohsiz qonlar, doim tevarakdan eshilib turg‘an oh-u zorlar manim yuragimni ezadir, tinchlig‘imni oladir. Yana men mirzoboshi bo‘lib qolsam, bu oh-u zorlarning, to‘kilgan ma‘sum qonlarning ichida bilfe‘l suzarman. Bu vaqt manim azobim bevosita bo‘lur. Balki, bunda ishtirok ham qilarman. Chunki xong‘a yaxshi ko‘runish uchun ko‘b ishlarni uning istagi-cha ko‘rsatish, zulm pichog‘ini qayrab berish, shu mansabda uzoq yashamog‘imning asos shartidir. Lekin men bunday vijdon-sizlik uchun yaratilmagan o‘xshayman. Madh-u sano, olqish va duo zamiriga yashiring‘an zulmdan faryod, haqsizlikdan dod ma'nolarig'a malham bo'lish, albatta, manim qo‘limdan kelmas. Chunki «soyaboni marhamat» vijdon kengashiga quloq so‘luchi “ahmoq”lardan emasdir. Dadangning fe‘li senga ma'lum, Ra‘no. Dunyoda «manfaat dan boshqani ko‘rmaydir. Manim nima uchun bu mansabdan qochqanlig‘imning farqiga bormay «Kufroni ne‘mat qilasan, oyig‘a falon tillo» deb dafatan qo‘s qoqlig‘imga hukm chiqaradir. Dadangga boyag‘i uzrlarni ko‘rsatish toshning qulog‘ig‘a azon aytish bilan bir

bo'lgani uch sukut qildim. Agar orada bir kishi bo'lmasa edi, garchi, bosh mirzoliq' hozir bir xayol ersada, o'shanda ham shu bo'yin sunmas edim, Ra'no.

Anvarning eng katta xatosi solih maxdumni gapini yerda qoldirmay Abdurahmon domlaga ilm o'rgatgani, birovni ko'ngliga qaragani bo'ldi. Bunga javob o'laroq Abdurahmon domla esa berilgan non-tuzga xiyonat qilib, Anvarning dushmanlariga hamroh bo'lib, unga qarshi tuzoq qo'ymoqchi bo'ladi. Abdurahmon domla, Shahodat Mufti va Kalonshoh mirzolarining Anvarga bo'lgan hasad, g'azab, tuyg'ulari uni zaif nuqtasi - Ra'nodan ayirmoqchi bo'lishadi. Anvarning bu dunyoda mehr qo'ygan, bor- yo'g'i Ra'no edi, hech qanday manfaatsiz yaxshi ko'ruvchisi... Bir tomondan Ra'no ham Xudoyorxonning istaklarini asiri bo'lishni istamadi. Qanchadan-qancha yosh qizlarning qordek oppoq orzulari, istaklari xonning nafsi yo'lida shahid bo'lib, bir og'iz va bir harakat bilan ham qarshi chiqa olmasliklari eng og'ir, alamli nuqtasi! Chunki Xudoyorxonning o'ylab netmay ham gapirgan gapi hamma uchun so'zsiz buyuruq bo'lar, unga qarshi chiqqanlar esa qatl etilar edi. O'zining go'zal, beg'ubor muhabbati uchun kurashgan g'ayratli, jasur qiz Ra'no anu shunday yosh, nafis gullarni so'ndirgan nafs quliga nisbatan Xonga qarshi chiqqan ilk qiz edi. Anvar va Ra'no bu muhabbat sinovlariga chora o'laroq birgalikda Toshkentga qochib ketadilar. Mana bu sevgi uchun haqiqiy kurash! Qochish chora emas dersiz lekin Xudoyorxondan qutulishning yagona chorasi shu edi.